

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

hamda

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

o'rtasida ta'lim va fan sohasi bo'yicha ilmiy-amaliy hamkorlik to'g'risida

M/8 -sonli SHARTNOMA

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu shartnoma Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti (yuridik manzil: Jizzax sh., Sh.Rashidov shox ko'chasi 4 uy, indeks 130100) nomidan rektor Sharipov Shavkat Safarovich bir tomondan hamda Namangan davlat pedagogika instituti (yuridik manzil: Namangan sh., Uychi ko'chasi, 316-uy, indeks 160119) nomidan rektor v.b. Qodirxonov Murodxon Rashidxonovich ikkinchi tomondan (bundan keyin - Taraflar deb nomlanadi) o'rtasida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, 2018-yil 5-iyundan "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli isloxlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-soni qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 824-sonli qarorida belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida taraflar o'rtasida ta'lim va fan sohasida ilmiy-amaliy hamkorlikni amalga oshirilishi to'g'risida tuzildi.

1.2. Shartnomaning asosiy maqsadi rakobatbardosh yuqori malakali yetuk mutaxassislarni tayyorlash, o'zaro metodik yordam ko'rsatish, masofaviy ta'limni amalga oshirish. Qo'shma ilmiy-amaliy anjumanlarni o'tkazish, birgalikda ilmiy amaliy, fundamental) tadqiqotlar o'tkazish va iqtisodiy, siyosiy, huquqiy hamda, ilmiy adabiyotlarni yaratish, kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish ishlariga ko'maklashish hamda taraflarning ilmiy-texnik va ilmiy salohiyat imkoniyatlarini birlashtirish deya qabul qilinadi.

2. Taraflarning hamkorlik yo'nalishlari

2.1. O'quv-metodik ishlar bo'yicha:

- o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha (DTS, ta'lim yo'nalishlarining malaka talablari, o'quv rejalari, fan dasturlari, ishchi o'quv rejalari, ishchi fan dasturlari, dars ishlanmalari va b.) o'zaro hamkorlikni o'rnatish va

takomillashtirish;

- taraflarning vakillari (talaba va magistrantlar) uchun ochiq dars mashg'ulotlarini, professor-o'qituvchilar uchun seminar-treninglarni, davra suhbatlarini, bevosita mashg'ulotlarga tashrif buyurgan holda, tajriba almashinuvlarni tashkillashtirish va amalga oshirish;

- taraflarning vakillari (talabalar va magistrantlar) tomonidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot ishlarida, bitiruv malakaviy va magistrlik dissertatsiya ishlarida hamkor tashkilotning yetuk olim va mutaxassislaridan ilmiy rahbarlarni tayinlash;

- zamonaviy pedagogik va axborot-texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiiq etilishida o'zaro metodik va amaliy yordam ko'rsatish;

- taraflarning vakillari tomonidan ishlab chiqiladigan o'quv-uslubiy va ilmiy ishlarga yetuk mutaxassislarni taqrizchi yoki ekspert sifatida xulosa berish uchun jalb qilish;

- birgalikda o'quv-uslubiy ishlanmalarni yaratishlari, axborot-resurs markazidagi mavjud o'quv-metodik adabiyotlardan foydalanishlarida o'zaro hamkorlikni amalga oshirish;

- taraflarning axborot-resurs markazlari fondidan hamkor muassasaning professor-o'qituvchilari, talabalar (magistrantlar) va xodimlari foydalanishlari uchun imkoniyat va sharoitlar yaratishlari;

- shuningdek taraflarning o'zaro kelishuvlari asosida o'quv-metodik hamkorliklarning boshqa yo'nalishlari va shakllarini amalga oshirishlari mumkin.

2.2 Ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha:

- ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarining o'quv-ilmiy va innovatsion faoliyati samaradorliklarini oshirish maqsadida taraflar, ilmiy hamda, loyiha-konstruktorlik ishlarida ilmiy va ilmiy-texnik hamkorlikni muntazam rivojlantirib borishlari;

- taraflar ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro tajriba almashtirishlari;

- ilmiy va pedagogik kadrlarni tayyorlash hamda malakasini oshirish, hamkorlikda mutaxassislik soxalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish;

- professor-o'qituvchilar hamda iqtidorli talabalar o'rtasida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyalarini tashkillashtirish, o'quv amaliyotlarini o'tkazish, taraflarning ilmiy tadqiqot laboratoriyalaridan foydalanish yuzasidan imkoniyatlar yaratib berish shuningdek, ularni innovatsion yarmarkalar, ko'rgazmalar va tanlovlarda faol ishtirok etishlarini ta'minlash;

- taraflar hamkorligida ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy va xalqaro konferensiyalarni o'tkazishlari. bunda xorijiy sheriklarni taklif etishlari: Taraflarning nashrlarida (maqolalar va tezislar to'plamlarida, jurnal va gazetalarida) hamkor muassasa professor-o'qituvchilari, talaba va magistrantlarning ilmiy maqolalari va tezislarini chop qilinishi yoki ularning nashr etilishiga amaliy yordam ko'rsatishlari;

- taraflarning vakillari (xodimlari, professor-o'qituvchilari va talaba (magistrantlari) tomonidan yaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga taqriz va ekspertiza xulosalari berishlari;

- taraflarning xodimlari, doktorantlari va magistrilariga ilmiy- tadqiqot ishlarini amalga oshirishlari uchun xamkor tashkilotning yetuk professor va olimlaridan ilmiy rahbar va maslahatchilarni tayinlashlari;

- taraflarning o'zaro kelishuvlari asosida ilmiy-tadqiqot bo'yicha hamkorlikni amalga oshirishning boshqa yo'nalishlari va shakllari ham belgilanishi mumkin.

2.3 Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlari hamda ommaviy sport o'yinlari bo'yicha:

- talabalarni yo'qori ma'naviy-axloqiy, psixologik va yetakchilik sifatlarini, vatanparvarlik hamda O'zbekistonning milliy g'oyalariga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish, ularda keng dunyo qarashni va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish. Jumladan:

- ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish bo'yicha oldindan o'zaro hamkorlikda o'tkaziladigan tadbirlar rejalarini tuzish va yuqori saviyada o'tkazilishida bir-birlarga yaqindan yordam berishlari ;

- hamkorlikda davlat va umumxalq bayramlari, tarixiy sanalarga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etishlari va uni hamkorlikda o'tkazishlari;

- taraflar tomonidan o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy tadbirlarda xamkor muassasaning professor-o'qituvchilari, talabalari (magistrantlari) va xodimlarining tadbir qatnashchisi sifatida ishtirok etishini ta'minlashlari;

- taraflarning professor-o'qituvchilari, talabalari (magistrantlari) va xodimlarining xamkor muassasaning xayoti va ijodiy muhiti bilan tanishish uchun o'zaro sayoxatlar tashkil etishlari;

- mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy soxada amalga oshirilayotgan isloxoatlarning mazmun-mohiyatini yoritish maqsadida taraflarning hamkor muassasa, tashkilot va korxonalar, jamoat tashkilotlari bilan birgalikda davra suhbatlari, uchrashuvlarni tashkillashtirishlari;

- taraflar talabalari (magistrantlari)ni yetuk olimlar, faxriy pedagoglar, soxalarning yetuk olimlarilarni hayot yo'li, ibratli faoliyati bilan tanishtirish maqsadida hamkorlikda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar (faxriylar bilan uchrashuvlar, ijodiy kechalar va h.k.) hamda ommaviy sport turlaridan o'zaro musobaqalar o'tkazish rejasini tuzishlari va uyushtirishlari;

- taraflarning o'zaro kelishuvlari asosida ma'naviy-ma'rifiy hamkorlikning boshqa yo'nalishlari va shakllarini amalga oshirishlari mumkin.

2.4. Moddiy-texnika ba'zasidan foydalanish bo'yicha:

- taraflar bir-birlarining o'quv moddiy-texnik ba'zalaridan (o'quv laboratoriyalari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan jihozlangan

xonalar, anjumanlar zali va h.k.) ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'zaro kelishgan xolda maqsadli foydalanishlari mumkin.

2.5. Malaka oshirish va tajriba almashish bo'yicha:

- taraflarning kafedra mudirlari, professor-o'qituvchilari ta'lim muassasalari rahbarlarining bu haqdagi alohida kelishuvlari asosida xamkor tashkilotning tegishli kafedralarida o'quv amaliyotlari o'tashlari va tajriba almashishlari mumkin.

- taraflarning o'zaro kelishuvlari asosida malaka oshirish va tajriba almashishi bo'yicha hamkorlik qilishning boshqa yo'nalishlari va shakllari ham belgilanishi mumkin.

2.6. Talabalar almashinuvi bo'yicha:

- talabalar shartnoma to'lovlari yuboruvchi oliy ta'lim muassasasiga to'laydi. Talabalar qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasasi tomondagi to'lovlardan ozod qilinadi va to'lovsiz ravishda qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasasi o'z yo'nalishiga mos ta'lim yo'nalishlarida ro'yxatdan o'tadi. Qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasasi talabalari uchun pulli bo'lgan xizmatlar uchun xaq to'laydi. Qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasasi pulli xizmatlar to'g'risida oldindan ma'lumot taqdim etishi lozim.

- talabalar almashinuvi bo'yicha tegishli ta'lim yo'nalishlarida "Talabalar almashinuvi dasturi" ishlab chiqiladi va xar ikki tomon o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan imzolanadi.

- talabalar almashinuvida ishtirok etuvchi talabalar yuboruvchi oliy ta'lim muassasasi tomonidan quyidagi mezonlar bo'yicha tanlab olinadi:

- ariza topshiruvchi talaba yuboruvchi oliy ta'lim muassasasi talabasi bo'lishi;

- yaxshi o'zlashtirish ko'rsatkichiga ega bo'lishi;

- ilmiy tadqiqot ishi bilan shug'ullanish layoqatiga ega bo'lishi;

- qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasasi yuborilayotgan talabalar to'g'risida qo'shimcha ma'lumot talab qilishi mumkin.

- talabalar almashinuvida ishtirok etayotgan talaba yuboruvchi oliy ta'lim muassasasi talabasi hisoblanadi va qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasasida hech qanday alohida maqomga ega bo'lmaydi. Talabaning qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasasidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuboruvchi oliy ta'lim muassasasi tomonidan kursdan kursga o'tkazish va stipendiya tayinlashda hisobga olinadi. Talabalar almashinuvi jarayonida qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasasi va yuboruvchi oliy ta'lim muassasalarining ta'lim yo'nalishlari mos kelishini va o'quv jarayoni tashkiliy masalalarini xar ikki tomonning o'quv ishlari bo'yicha prorektorlari tasdiqlaydi.

- borish-kelish yo'l xarajatlari, alohida xonadonlarda yashash, ovqatlanish xarajatlari. Qo'shimcha adabiyotlar va o'quv uslubiy majmualar sotib olish va boshqalar talabalarining o'zlari tomonidan to'planadi. Yuboruvchi va qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasalar yuqoridagi va boshqa qo'shimcha xarajatlar uchun javobgarlikni olmaydi.

- har ikki tomon talabalar almashinuvida qatnashuvchi talabalarga oliy ta'lim muassasasi ixtiyoridagi talabalar turar joylari to'g'risida ma'lumotlar taqdim etadi va oliy ta'lim muassasasi ichki imkoniyatidan kelib chiqqan holda talabalar turar joylaridan belgilangan tartibi bo'yicha joy ajratishi mumkin.

- talabalar almashinuvida qatnashayotgan talabalar qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasasining teng huquqli talabasi hisoblanadi va ma'naviy-sport tadbirlar, jamoat ishlarida qatnashish, kutubxona va ARM xizmatlaridan foydalanish huquqiga ega.

- talabalar almashinuvi bir ko'pi bilan ikki semestrda amalga oshirilishi mumkin (bir o'quv semestri - 6 oy).

- har bir oliy ta'lim muassasasi bir semestrda bir ta'lim yo'nalishi uchun ko'pi bilan 4 talaba yoki bir akademik yil uchun 2 talaba almashinuvini amalga oshirishi mumkin. Tomonlarning o'zaro kelishuvi bilan almashinuvchi talabalar soni o'zgartirilishi mumkin.

- har ikki tomon o'zaro talabalar almashinuvida qatnashayotgan talabalar to'g'risida bir-biriga to'liq ma'lumot taqdim etishi lozim (bunda yuboruvchi tomon almashinuv dasturi boshlanmasdan kamida 1 oy avval, qabul qiluvchi tomon almashinuv dasturi yakunlangandan so'ng 1 hafta davomida).

- har ikki oliy ta'lim muassasasi mazkur shartnoma shartlarini bajarilishini nazorat qiluvchi komissiya tuzadi. Komissiyada har ikki tomonning ishtirokchilari soni va saloxiyati teng bo'lishi maqsadga muvofiq. Komissiya shartnoma shartlarining bajarilishida yuzaga kelgan muammolarni aniqlaydi va yechimi bo'yicha qaror qabul qiladi.

3. Xarajatlarni belgilash

3.1. Ushbu shartnomada Taraflar uchun xech qanday moliyaviy xarajatlar nazarda tutilmaydi.

3.2. Mazkur shartnomada belgilangan vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq zarur xarajatlar Taraflarning alohida kelishuvi asosida tartibga solinadi.

4. Yakunlovchi qoidalar

4.1. Ushbu shartnomani qo'llash va uni talqin qilish bilan bog'liq barcha masalalar tomonlarning o'zaro maslaxatlashuvi va muzokaralari asosida hal etiladi.

4.2. Taraflar o'rtasida shartnomaning tugatilishi, agar tomonlar o'rtasida uni tugatish yuzasidan boshqacha shartnoma belgilanmagan bo'lsa, shartnoma to'xtatilishidan oldin boshlangan va tugallanmagan loyiha, almashinuv dasturi hamda ilmiy-tadqiqot ishlariga tasir etmaydi va ular belgilangan muddat uchun davom etadi.

4.3. Ushbu shartnomaning amal qilish muddati 4 yil bo'lib, u taraflarning o'zaro kelishuviga asosan uzaytirilishi yoki muddatidan avval bekor qilinishi mumkin.

4.4. Shartnomani uzaytirish yoki uni bekor qilish haqida taraflar boshqa tomonni kamida bir oy oldin xabardor qilishlari lozim.

4.5. Mazkur shartnoma har ikki oliy ta'lim muassasasi rahbarlari tomonidan

imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

4.6. Mazkur shartnoma xar ikkisi xam teng yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuziladi va taraflarning xar birida bir nusxadan saqlanadi.

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat
pedagogika universiteti rektori
Sharipov Shaykat Safarovich

8 " sentyabr 2023-yil

Namangan davlat pedagogika
instituti rektori
Qodirxonov Murodxon Rashidxonovich

11 " 09 2023-yil